

O'ZBEK AYOLINING ASLI ZULFIYA!**Ro'zimurodova Durdona****Toshkent Tibbiyot akademiyasi****Tibbiy biologiya fakulteti 2-bosqich talabasi****[https://doi.org/ 10.5281/zenodo.7605160](https://doi.org/10.5281/zenodo.7605160)**

Annotatsiya: O'zbekning buyuk shoirasi hayot yo'li, ijodi. Zulfiyaxonimga xos xususiyatlar. Zulfiyaxonimning o'zbek she'riyatida tutgan o'rni. Zulfiyaxonim erishgan yutuqlar.

Kalit so'zlar: Zulfiya, she'r, muhabbat, oila, hijron, mehnatsevar, sadoqat, badiiy ijod, doston, janr, O'zbekiston, mukofot.

Nafaqat o'z she'rlari, balki butun hayoti bilan o'zbek ayolining ma'naviy qiyofasini namoyon etgan atoqli shoiramiz Zulfiyaxonimni ham men shunday fidoyi insonlar qatoriga qo'shgan bo'lardim. Uning jahon minbarlaridan yangragan she'rlari Sharq ayolining aql-u zakosi, fazl-u kamolining yorqin ifodasi sifatida millionlab she'riyat muxlislariga odamiylik, muhabbat va muhabbatdan saboq bergan. Zulfiya Isroilova- "Zulfiya" nomi bilan tanilgan O'zbekistonik shoira, journalist, tarjimon, tarjimon arbobi. Birinchi mart 1915-yilda Toshkent viloyatida tavallud topgan. Hunarmand oilasida tavallud topgan. Shunga qaramay, ota onasi yuqori madaniyatli insonlar bo'lishgan. Ota onasi o'qimishli, madaniyatli inson bo'lishini istashgan. Ularni orzusini ro'yobga chiqaradi.

Uning ilk she'rlari "Yangi yo'l" oynomasi, "Qizil O'zbekiston" hamda "Yosh leninchi" gazetalarida chop etilgan.

Mehnat faoliyatini juda erta boshlagan shoira deyarli bir umr jurnalistika va nashriyot sohasida ishladi.

Shoira she'rlarining el aro mashhurligi tasodifiy emas. U bolaligidan olamga hayrat ko'zi bilan qarovchi, uning boshqalar ko'rolmaydigan jihatlarini ilg'ovchi qizaloq ekanligi bilan ajralib turardi. Buning ustiga, oilasidagi muhit ham yosh Zulfiyada badiiy ijodga ishtiyoqni uyg'otardi. Zulfiya she'riyati ana shunday pokiza buloqlardan suv ichgan ijoddir. Ayni shu sababdan uning tinchlik haqidagi, inson ruhiyatini g'ajib tashlaydigan hijron to'g'risidagi, tabiatning ajib bir holati borasidagi she'rlari hech kimni befarq qoldirmaydi. Shu bois shoiraning barcha ayollarga, barcha onalarga, tushunarli, anglanarli bo'lgan she'riyati aslo eskirmaydi. Uning asarlarida halol inson tuyg'ularining porloq yulduzi charaqlab turadi.

Zulfiyaxonim o'zbek she'riyatida o'ziga xos o'ringa ega shoira bo'lishi bilan birga inson sifatida ham shu xalqning barcha oliyjanob xislatlariga ega bo'lgan ayol. Bugun shu maqolani yozish va Zulfiyaxonimni ijodiga chuqurroq nazar solish orqali yana bir karra amin bo'ldimki, o'zbek adabiyoti XX asrda har qancha ziddiyatli, mashaqqatli va murakkab yo'lni bosib o'tgan bo'lmasin, unda bir qator tom ma'nodagi ijodkorlar yetishib chiqqan va ularni ichidagi porloq yulduzlardan biri bu Zulfiyaxonim bo'lgan. Bugungi istiqlool kunlarida ularning ijodlari yangi qirralar bilan namoyon bo'lmoqda. Zulfiyaxonimning hayoti va ijodi barcha xotin-qizlar uchun ibrat. Negaki, uning hayotidagi mehnatsevarligi, doimo olg'a intilishi, sevgi bobida sadoqatli yor ekanligi, badiiy ijod borasida tinimsiz izlanuvchanligi hamda hayot qiyinchiklarida esankiramasligi, erishilgan yutuqlar oldida o'zini yo'qotib qo'ymasligi har qanday qiz yoki ayol qalbida havas uyg'otadi.

Zulfiyaxonim hayoti davomida yozgan she'rlarva dostonlari quyidagilardir:

“Iqror”, “Hasad”, “Bahor keldi, seni so’roqlab”, “Zaynab va Omon”, “Ona”, “Do’stlarimga”, “Hayot sahifalari”, “Lolalar”, “Nastarin” va boshqalar.

Shoiraning ayriliq ifodasi bo’lmish she’ri “Ko’rganmiding ko’zlarimda yosh” deb ataladi. She’rning birinchi bandida gul berishning ikki shakli tasvir etilgan. Oldin oshiq lirik qahramon-ma’shuqaga gul keltirgan bo’lsa, o’lim ularning o’rnini almashtiradi. Zulfiyaning hijron lirikasida unga hamisha tabiat hamdard. Bu holat she’rning ikkinchi bandida yaqqol aks etgan:

Keldim. Uzoq qoldim men sokin,
Sening aziz boshingda yolg’iz.
Osmon tiniq edi va, lokin
Parcha bulut yetib keldi tez.

Osmon tiniq bo’lishiga qaramay, yo’q yerdan parcha bulutning yetib kelishi, lirik qahramonning ko’zlarida yosh ko’rib, uning iztiroblariga bardosh qilolmay, duv-duv yosh to’kishi tasvirining ta’sir darajasi, samimiyligi, haqqoniyligi, hayotiy asosi she’rxonni o’yga toldiradi.

XULOSA. Zulfiya Respublika Davlat Mukofoti sovrindori, O’zbekiston xalq shoirasi, xalqaro “Nilufar” mukofoti, Mehnat Qahramoni unvoni va “Do’stlik” ordeni sohibnasidir. Zulfiyaning xizmatlari munosib taqdirlangan. Shoir 1985-yilda Mehnat Qahramoni unvoniga, 1965-yilda “O’zbekiston xalq shoirasi” unvoniga sazovor bo’ldi. 1994-yilda Zulfiya mustaqil respublikamizning “Do’stlik ordeni bilan mukofotlandi. Zulfiya o’ziga xos ijodkor. Uning o’z tili, o’ziga xos uslubi bor. Teran fikrlovchi shoir Zulfiya hayot haqida o’ziga xos tarzda poetik fikr yuritdi va o’z asarlarini falsafiy mazmun bilan bezadi. Zulfiya lirikasi rus, ukrain, qozoq, ozarbayjon, tukman, qoraqalpoq, ingliz, hind, afg’on, arab, chex, polyak, bolg’ar, venger, mo’g’ul, fransuz va nemis kitobxonlari tomonidan ham o’qilyapti. Shoir mavzu va goyaviy yo’nalishi rang-barang bo’lgan she’rlarida o’zining etuk iste’dod egasi ekanligini namoyon etgan. She’rlarida qo’llanilgan tasvir usullari va vositalari, badiiy obrazlar tuyg’u va kechinmani o’ziga xos tarzda tasvirlashga yo’naltirilgan. Zulfiya hayoti va ijodini o’rganish o’quvchilarda insoniy fazilatlarni yuksaltirishga katta yordam beradi. Shunday ekan shoir ijodi mavzu ko’lami va mohiyati jihatdan salmoqlidir.

References:

1. uz.m.wikipedia.org; kitobxon.com;
2. Zulfiya nomidagi Davlat mukofotini ta’ sis etish bo’yicha takliflarni qo’llab-quvvatlash to’g’risida: O’zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni ;
3. Zulfiya “Xotiram siniqlari” to’plami;
4. Shoiraning hayotiga bag’ishlangan estaliklari;
5. Izlanishlarim va fikrlarim.